

"MAHALLABAY" ISHLASH TIZIMI BO'YICHA YUQORI KO'RSATKICH QAYD ETGAN XODIMLAR RAG'BATLANTIRILDI



"Mahallabay" ishlash tizimi bo'yicha yuqori ko'rsatkich qayd etgan xodimlar rag'batlantirildi

Joriy yil oktyabr oyida "Mahallalarda soliq organlari faoliyati" axborot tizimida Farg'ona viloyatidagi 1 063 ta mahallaga biriktirilgan 435 nafar soliq inspektorining samaradorlik ko'rsatkichi (KPI) - 81,5 ballni tashkil etdi.

E'tirof etish joiz, So'x tumani soliq inspeksiyasi xodimlarining umumiy KPI ko'rsatkichi 96,9 bo'lib, respublikadagi 208 ta tuman va shaharlar ichida eng yuqorisi bo'ldi.

Shu munosabat bilan, boshqarma rahbariyati tomonidan inspeksiya boshlig'iga Soliq qo'mitasi raisining tashakkurnomasi va esdalik sovg'alari yetkazildi.

So'x tuman davlat soliq inspeksiyasi xodimlarini ushbu muvaffaqiyat bilan tabriklab, bunday ijobja yutuqlar bardavom bo'lishini tilab qolamiz.

Tabriklaymiz!

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati





[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-15 17:24:52